



INGLIZ TILIDA KOMIK EKSPRESSIYANI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIZMLAR SHAKLLANISHIDA USLUBIY VOSITALARNING TASNIF MASALARI

**Mamadaliyeva
Madinabonu Jaxongir qizi**

*Andijon davlat chet tillar instituti Tayanch
doktoranti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilida komik ekspressiyani voqelantiruvchi frazeologizmlar shakllanishida lingvositistik vositalar tizimi tadqiq qilinadi va mana shu turli-tuman vositalarni tahlil qilgan olimlarning tahlil xulosalarini yoritiladi. Ushbu stilistik vositalar tilshunoslik nuqtai-nazaridan bajaradigan vazifasi, shakli va ma'nosiga ko'ra turlicha yondashuvlar asosida xilma-xil atamalar: ekspressiv vositalar, stilistik vositalar, stilistik qurilmalar, tasviriy vositalar, ifodaviy vositalar, trop, figuralar va boshqa nomlar bilan ataladi hamda ular tilshunos olimlar tomonidan turlicha tasniflanadi va tavsiflanadi. Bunga asosiy sabab sifatida, stilistikaning tilshunoslikning turli sohalar bilan keng qamrovli bog'liqliqligi hamda uning qo'llanish imkoniyatlarining turfa ekanligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, komik frazeologizmlar, komik ekspressiya, stilistik vositalar, tasviriy vositalar, ekspressiv vositalar, stilistik vositalar, stilistik qurilmalar, tasviriy vositalar, ifodaviy vositalar, trop, figura.

Ritorika tamoyillari an'analariga ko'ra badiiy asarlarning tili stilistik vositalarni ikki asosiy: tasviriy va ifodaviy turlarga ajratish orqali tahlil qilib kelinadi. Zamonaviy ingliz tili stilistikasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim, I.V.Arnold keltirgan ta'rifga asosan, tasviriy vositalar deganda leksik xarakterga ega bo'lgan, so'z, so'z birikmasi, fonemalarning obrazli tarzda qo'llanilishini taminlovchi, ko'chma ma'no asosida qo'llaniladigan barcha birliklar tushunilib, "trop" atamasi bilan birlashtiriladi. Tasviriy vositalar qatoriga metafora, metanimiya, giperbola, litota, ironiya, perifraz va shu kabi ma'no ko'chishiga asoslangan birliklar kiradi. Ifodaviy vositalar yoki nutq figuralari esa, obraz yaratmaydi, nutqning ifodaviyligini kuchaytirib, uning emotsional yuklama darajasini oshirishga xizmat qiladi va ular qatoriga inversiya, ritorik soroq, parallel konstruksiyalar, kontrast va shu singari maxsus sintaktik qurilmalar kiradi¹.

Stilistik vositalarni yuqorida keltirilgan tasnifga tayangan holda guruhlashtirgan, biroq uning kompleks nazariyalarini soddaroq va aniqroq shaklda yetkazib bergan olimning tavsifini keltirishni o'rinli deb topdik. Trop so'z ma'nosining o'zgarishi

¹ Арнольд И. В. Стилистика. Современный английский язык. – Общество с ограниченной ответственностью ФЛИНТА, 2010. – С.88 - 89.

bo‘lib, uning asl lug‘aviy ma‘nosidan chetga chiqib, ko‘chma ma‘noga o‘tishini ifodalaydi. Stilistik figura bo‘lsa, sintaktik strukturaning o‘zgarishi, ya‘ni so‘zning tartibi, konstruktiv modeli yoki uning o‘zaro joylashuvini odatdagi mexanizmga qarshi og‘ish sifatida talqin etiladi². Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, qadimgi davr tilshunosligi tropni ma‘no kochishi asosida yuzaga keladigan o‘zgarish sifatida, figurani esa gap tuzilishigadagi o‘zgarish natijasida yuzaga keladigan hodisa sifatida baholagan. Bir guruh olimlarning, fikricha³, tasviriy vositalar paradigmatic tabiatga ega bo‘lib, ular muallif tomonidan tanlangan so‘zlar hamda iboralarni ma‘noviy yaqin, biroq matnda bevosita keltirilmagan boshqa so‘zlar bilan bog‘liqligi asosida yuzaga keladi. Ifodaviy vositalar esa sintagmatik xarakterga ega bo‘lib, ular til birliklarining chiziqli joylashuviga asoslanadi va ularning stilistik ta‘siri aynan shu joylashuvga bog‘liq.

Zamonaviy tilshunoslik nuqtai-nazaridan stilistik trop va figura atamaları o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lsada, stilistika taraqqiyoti bosqichida yangi bir yondashuv ilmiy maydonni egalladi va u stilistik vositalarni tasniflashda keng qo‘llanila boshladi. Ingliz tili stilistikasi sohasining ilmiy poydevorini shakllantirgan yetkachi olim I.R.Galperin stilistik vositalarni tasniflashning tizimli yondashuvini ilgari surgan. Uning qarashlari stilistik vositalarni til sathlari darajasida tahlil qilinishi bilan ahamiyatlidir. Galperin tomonidan taklif etilgan stilistik tasnifda ikki asosiy: ekspressiv vositalar (EM - expressive means) va stilistik qurilmalar (SD – stylistic devices) markaziy tushunchalar sifatida farqlangan va ular o‘rtasidagi tafovut aniq ko‘rsatib berilgan. Ya‘ni, ekspressiv vositalar nutqni ifodali va ta‘sirchan qilishga xizmat qiladigan lisoniy: fonetik, morfologik, so‘z yasovchi, leksik, frazeologik, sintaktik, shakllar bo‘lsa, stilistik uslublari esa til faktlaridan ongli va maqsadli ravishda adabiy qo‘llanilishi hisoblanib, ular til shakllarining semantik va struktural xususiyatlarning uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadigan generativ model taqdim etadi⁴. Galperin tomonidan taklif etilgan tasnif darajaviy yondashuvga asoslangan. Olim stilistik imkoniyatlarni tilning turli qatlamlarida namoyon bo‘lishini ta‘kidlab, ularni quyidagi guruhlariga ajratadi⁵:

1. Fonetik ekspressiv vositalar va stilistik qurilmalar – alliteratsiya, assonas, paronomaziya, onomatopoeziya, ritm va qofiya, grafon;

2. Leksik ekspressiv vositalar va stilistik qurilmalar – metafora, metanimiya, sinekdoxa, alluziya, personifikatsiya, allegoriya, ironiya, pun (so‘z o‘yini), zeugma, tautologiya, epitet, oksimoron, antonomaziya, o‘xshatish (simile), giperbola, kichraytirish (meiosis), litota, perifraz, evfemizm;

3. Sintaktik ekspressiv vositalar va stilistik qurilmalar – gradatsiya, bathos, enumeratsiya, dramatik pauza (suspense), antitezis, tuzilmalar, inversiyalar, takror, prolepsis (voqeani oldindan aytish), asindeton (bog‘lovchisiz sanash), polisindeton

² Elena M. Cognitive and pragmatic approach to using stylistic devices in English literary discourse //Training, language and culture. – 2019. – T. 3. – №. 1. – 39 c.

³ Арнольд И. В. Стилистика. Современный английский язык. – Общество с ограниченной ответственностью ФЛИНТА, 2010. – С.88 – 89.; Zhukovska V. V. English stylistics: Fundamentals of theory and practice //Вид-во ЖДУ ім. І. Франка. – 2010. – 20 с.; Линтвар О. Н. и др. К вопросу о классификациях выразительных средств языка и стилистических приемов //Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2013. – №. 12-1. С. – 131.

⁴ Гальперин И. Р. Очерки по стилистике английского языка. – 1958. – С. 43-47.

⁵ Elena M. Cognitive and pragmatic approach to using stylistic devices in English literary discourse //Training, language and culture. – 2019. – T. 3. – №. 1. – 41 c.

(ko‘p bog‘lovchilik), ellipsis (so‘z tushirilishi), aposiopesis (to‘xtab qolish); ritorik savol.

Galperin yondashuvining ahamiyati lingvistik va adabiy tahlil ug‘unlashuvida bo‘lib, unda har bir stilistik vositani til qatlami darajasi bilan bir qatorda, kontekst bilan ham bog‘lagan holda tahlil qilish - uning matndagi mazmun va ta‘sir darajasini, umuman olganda kommunikativ ro‘lini ochib berish imkonini beradi. Hozirgi zamon stilistikasida klassik eng tizimli tasnif sifatida ushbu yondashuv keng qo‘llanilib kelinmoqda.

V.V. Jukovska (V.V.Zhukovska) stilistikani tilshunoslikning muayyan tilda mavjud ekspressiv vositalar tizimini o‘rganuvchi bir bo‘limi sifatida izohlagan va tilshunoslik va adabiyotshunoslikka tayangan holda stilistik tahlilni amalga oshirishning zamonaviy usullarni tadqiq etgan. U stilistikani alohida mustaqil tarmoqlarga, ya‘ni fonetik, morfologik, leksik hamda sintaktik stilistikaga ajratgan va ularning har biri tegishli darajadagi til birliklarining ifodaviy imkoniyatlarini tadqiq qilishga yo‘naltirilgan⁶:

a) Fonetik stilistika/Stilistik fonetika (stylistic phonetics) – tovushlarning ta‘siri, intonatsiya, ritm, alliteratsiya, assonans, onomatopeya kabi fonetik elementlar orqali nutqning ekspressivligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Mana shu prosodik vositalar tilga hissiy-ifodaviy rang berishda she‘riyat va prozada ham yetkachi stilistik vosita sifatida xizmat qiladi.

b) Stilistik morfologiya – grammatik shakllarning stilistik jihatdan qo‘llanish funksiyasini ko‘rib chiqadi va muayyan nutq turlariga xos grammatik ma‘nolarni tahlil qiladi. Shu orqali, so‘z shakllarining o‘zgarishi qanday qilib matnning ekspressivligini yohud emotsional xususiyatlarini o‘zgarishini ko‘rsatadi.

c) Stilistik leksikologiya – tilning leksik tarkibi, uning uslubiy funksiyasini o‘rganadi, shu bilan birga so‘zning semantik tuzilishida uning emotiv, ekspressiv, baholovchi va funksional-stilistik imkoniyatlarini tahlil qiladi.

d) Stilistik sintaksis – sintaktik tuzilmalar (inversiya, parallelizm, ellipsis v.b.) hamda so‘z tartibini tahlil qilib, bu orqali ma‘lum ma‘no ajratish, tezlikni o‘zgartirish, umuman olganda tilning stilistik ta‘sir darajasini o‘rganadi.

Jukovska tilning to‘rt darajasi asnosida ajratgan stilistik bo‘limlari o‘rtasidagi bog‘liqliklarga urg‘u berib, muayyan stilistik vositalar orqali tilning ifodali, ekspressiv va emotsional jihatlarining shakllanish xususiyatlariga e‘tibor qaratgan. Asarning nazariy saviyasi yuqori bo‘lsada, unda nazariyani empirik ma‘lumotlar yoki korpus tahlillari bilan integratsiya qilish biroz oqsaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda nazariyalarning ilmiy amaliy ahamiyatini boyitish uchun esa korpus asosidagi tahlillarga tayangan holda xulosalar chiqarish lozim deb o‘ylaymiz.

Y.A.Garanina filologiya fanlari nomzodligini olish uchun yozgan dissertatsiyasida komik ekspressiyani ifodalovchi lisoniy vositalarni tahlil qilar ekan, V.M. Jirmunskiy tomonidan XX asrning ikkinchi yarmida ilgari surilgan g‘oyani komik effektini yuzaga keltiruvchi usul va vositalarni guruhlashtirishda nazariy asos vazifasini o‘tashini qayd etadi. Jirmunskiy o‘z nazariyasida til tizimi va poetika o‘rtasidagi muvofiqlikka urg‘u berib, tilning har bir struktur qatlamiga poetikaning

⁶ Zhukovska V. V. English stylistics: Fundamentals of theory and practice // Вид-во ЖДУ ім. І. Франка. – 2010. – С. 9-82, 129-136.

alohida bo‘limi mos kelishi lozimligini ta’kidlaydi. Shu yo‘sinda, Garanina komik ekspressiyani voqelantiruvchi stilistik vositalarni til tizimining turli qatlamlari doirasida namoyon bo‘lishini asoslab, ularni uch guruhga ajratishni taklif etadi⁷:

- 1) Fonetik va grafik (графические) (orfografik);
- 2) Leksik, frazeologik, so‘z yasovchi (словообразовательные)ж
- 3) Morfologik va sintaktik (punktuatsion).

Olim yuqorida keltirilgan vositalarni yakka tartibdagina emas, balkim uyg‘unlashgan birliklar tarzida tizimli qo‘llanilish xususiyatlarini ham tahlilga tortganligi ahamiyatga molikdir. Shu bilan birga, mazkur yondashuv komizmni nafaqat estetika nuqtai-nazaridan, balki murakkab lingvopoetik jarayon sifatida talqin qilinishi mumkinligiga ishora qiladi.

Xulosa qilib aytganda, stilistik vositalarni guruhlashtirish tamoyillari ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsada, bu borada tilshunoslik hamjamiyatida barqaror ilmiy qarash shakllanmagan bo‘lib, ularni yagona ilmiy tamoyillar asnosida tizimlashtirish masalasini toliq hal etilgan deb bo‘lmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Elena M. Cognitive and pragmatic approach to using stylistic devices in English literary discourse //Training, language and culture. – 2019. – Т. 3. – №. 1. – 39-41 с.
2. Zhukovska V. V. English stylistics: Fundamentals of theory and practice //Вид-во ЖДУ ім. І. Франка. – 2010. – 20 с.
3. Арнольд И. В. Стилистика. Современный английский язык. – Общество с ограниченной ответственностью ФЛИНТА, 2010. – С.88 – 89.
4. Гальперин И. Р. Очерки по стилистике английского языка. – 1958. – С. 43-47.
5. Гаранина Е. А. Языковые средства выражения комического в детской литературе : дис. – Волгоградский гос. пед. ун-т, 1998. – С. 12-14.
6. Линтвар О. Н. и др. К вопросу о классификациях выразительных средств языка и стилистических приемов //Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2013. – №. 12-1. С. – 131

⁷ Гаранина Е. А. Языковые средства выражения комического в детской литературе : дис. – Волгоградский гос. пед. ун-т, 1998. – С. 9-82, 129-136.